

METAFORA MEHANIZMINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Rustamova Dilfuzaxon Vohidjon qizi

Qo'qon Universiteti ta'lif kafedrasi o'qituvchisi

rustamovadilfuzad7755@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada metafora mehanizmining funksional vazifalari ochib berilgan bo'lib, metafora nafaqat semantik balki kognitiv, ekspressiv vazifalarni bajarishi ham ko'rsatib o'tilgan. Metafora zamonaviy tilshunoslik va ritorikada muhim semantik birlik sifatida talqin qilinib, inson tafakkuri va nutqining ajralmas bir qismi sifatida o'rganilmoqda. Til va nutq dixotomiyasi kontekstida qaralganda, metafora har ikkala qatlama o'z ifodasini topadi: til sistemasi darajasida u — turg'un leksik birlik, nutq darajasida esa — individual, kontekstga bog'liq ijodiy birlik sifatida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: Tilshunoslik, ritorika, leksik birlik, ekspressivlik, assotsiativlik, baholash, ixchamlashtirish funksiyasi.

Metafora zamonaviy tilshunoslik va ritorikada muhim semantik birlik sifatida talqin qilinib, inson tafakkuri va nutqining ajralmas bir qismi sifatida o'rganilmoqda. Til va nutq dixotomiyasi kontekstida qaralganda, metafora har ikkala qatlama o'z ifodasini topadi: til sistemasi darajasida u — turg'un leksik birlik, nutq darajasida esa — individual, kontekstga bog'liq ijodiy birlik sifatida namoyon bo'ladi.⁷

Metafora haqida qadimgi davrlardan beri mulohaza yuritgan Aflatun, Aristotel kabi faylasuflardan tortib, hozirgi zamon o'zbek tilshunoslari — R. Qo'ng'urov, M.M. Mirtojiyev, G.K. Qobuljonova, S. Hojiev, Z. Tohirovlar ham bu fenomenning til va nutqdagi o'rnnini izchil ochib bergenlar.

Metafora tilshunoslikda ikki asosiy nuqtai nazardan baholanadi:

1. Lisoniy (tizimli) metafora – tilning semantik qatlamida mavjud bo'lib, turg'un leksik birliklar orqali ifodalanadi.

2. Nutqiy (kontekstual) metafora – muayyan muloqot sharoitida, ijtimoiy-kognitiv ehtiyoj asosida shakllanadi va ko'pincha individual xarakterga ega bo'ladi.

Nutqiy metaforalar ekspressivlik, baholovchanlik, poetiklik va kontekstga asoslangan noan'anaviylik jihatlari bilan ajralib turadi, bu esa ularni ijodiy nutqning asosiy vositasi sifatida qaralishiga sabab bo'ladi.

Metafora nafaqat semantik, balki pragmatik jihatdan ham quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Nomlash funksiyasi – metafora yangi so'zlar va tushunchalarni hosil qiladi, tilni boyitadi⁸

⁷ Lakoff, G., & Johnson, M. *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press. 1980

⁸ Mirtojiyev M.M. O'zbek tili semasiologiyasi.- Toshkent: Mumtoz so'z, 2010

2. Baholash funksiyasi – metafora orqali muallif yoki so‘zlovchining fikrga bo‘lgan munosabati bildiriladi⁹

3. Ekspressivlik – obrazli ifoda orqali nutq ta’sirchanligini oshiradi¹⁰

4. Ixchamlashtirish – murakkab fikrlarni qisqa va aniq ifoda etadi¹¹

5. Assotsiativlik – obyektlar o‘rtasidagi o‘xshashlikni tafakkur orqali kashf etish imkonini beradi¹²

Zamonaviy tilshunoslikda metaforalarning ikki turi farqlanadi:

1. Tirik metafora – nutqiy kontekstda yangi, kutilmagan ifoda sifatida yuzaga keladi va kuchli hissiy-ekspressiv ta’sirga ega bo‘ladi.

2. O‘lik metafora – uzoq vaqt davomida ishlatilishi natijasida o‘z obrazliligi va yangi ma’no kuchini yo‘qotgan, turg‘un birlikka aylangan ifodadir

A. Richards fikricha, har qanday “o‘lik” metafora qayta kontekstda jonlantirilishi, yangi ma’no bilan boyitilishi mumkin. Bu fikr, metaforaning doimiy yangilanishga, ijodiylikka ochiqligini ko‘rsatadi. Metafora o‘zbek tilshunosligida XX asrdan boshlab chuqur tadqiq qilinmoqda. U.S.Qobulova metaforani istioraning sinonimi sifatida izohlab, uni o‘xhatish vositalarining (masalan, kabi, singari) tushib qolishi bilan bog‘laydi. M.M.Mirtojiyev esa metaforalarni til hodisasi (turg‘un birliklar) va nutq hodisasi (konkret kontekstda vujudga keluvchi metaforalar) sifatida tahlil etadi. U shuningdek, metaforalarning oddiy metafora, personifikatsiya, sinesteziya turlarini ajratadi. Z.Tohirov, G.Qobuljonova, S.Hojiev, B.Umurqulov kabi olimlar metaforaning kognitiv, pragmatik, poetik va sotsiokultural jihatlarini o‘rganib, uni nafaqat leksik hodisa, balki ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida ham talqin qiladilar .

Metafora — bu inson tafakkurining, hissiy idrokining, dunyoni obrazli anglashga bo‘lgan ehtiyojining tilda ifodalananishidir. Til va nutq dixotomiysi doirasida u:

-til darajasida — turg‘un, tizimli birlik sifatida,

-nutq darajasida — kontekstual, ijodiy birlik sifatida namoyon bo‘ladi.

Metafora orqali:

-til ixcham va obrazli bo‘ladi,

-nutq ifodalni va ta’sirchan chiqadi,

-tafakkur esa assotsiativ va kreativ shaklda namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, metafora nafaqat til bezagi, balki til va nutqning integratsiyalashgan, ijtimoiy-angloviy, ekspressiv vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Metafora borasidagi ilmiy qarashlar faqatgina ritorika sohasi bilan cheklanib qolmadi, zamonaviy tadqiqotlar metaforaning tilshunoslikdagi o‘rnii va ahamiyatini chuqur tahlil qilishga qaratilindi. Metafora mehanizmi tahlili chuqur o‘rganilgan davrlarda uning nutqning bezagi sifatidagi funksiyasidan tashqari kognitivlik, volyuntativlik, ekspressivlik

⁹ Qobuljonova, G. K. *Nutqiy metafora: lingvopragmatik tahlil*. Toshkent: Ma’naviyat.2021

¹⁰ Umurqulov, B. *O‘zbek she’riy tilidagi poetik metaforalar*. Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi 2019.

¹¹ Tohirov, Z. *Zamonaviy metaforologiya: nazariy va amaliy jihatlar*. Toshkent: Noshir. 2020

¹² Lakoff, G., & Johnson, M. *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press. 1980

kabi funksiyalari ham kashf qilindi. Ayni mana shu tahlil va izlanishlar biz quyida o'rganmoqchi bo'lganimiz metaforaning kognitiv xususiyatlarini to'liq yoritib berdi. Kognitivlik nisbatan yangi yo'naliш bo'lib, bugungi kunda uning rivoji inson intellektual rivojlanishi bilan bog'liq. Metaforaning kognitiv xususiyatarini tadqiq etishdan avval metafora borasidagi olimlarning nazariyalarini o'rganish va metafora hodisasisidagi kognitivlik xususiyatining amaliy ahamiyatini ochib bersak maqsadga muvofiq bo'ladi. Metafora fenomeni juda ham serqirra til hodisasi bo'lib, uning kognitivlik xususiyatini tadbiq etishda kognitivlik tushunchasining paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan bog'liq jarayonlarni o'rganish zarur hisoblanadi.

Shu o'rinda falsafa, tilshunoslik, sotsiologiya singari ijtimoiy gumanitar fanlar sohasiga oid bo'lgan kognitivlik, kognitiv tizim yoxud kognitiv tuzilma atamalariga qisqacha ta'rif bersak. Kognitiv tizim, kognitiv tuzilma (lotincha: cognition "idrok, tasavvur qilish, ishning tahlili")-xarakter, tarbiya, kuzatish va atrofdagi dunyoni aks ettirish natijasida ongda rivojlangan bilimlar tizimi. Ushbu tizimga asoslanib maqsadlar qo'yiladi va ma'lum bir vaziyatda qanday harakat qilish haqida qaror qabul qilinadi. Kognitiv tizimning asosifkrlash, ong, xotira va tilning o'zaro ta'siri; bunday tizimning tashuvchisi insonning miyasi¹³. Ushbu ta'rifdan yaqqol namoyon bo'lganidek kognitivlik sof inson intellektining mahsuli, uning tashuvchisi va saqlovchisi inson miyyasi hisoblanadi. Inson tasavvuri, bilimi, ma'daniyati, fikrlarining majmuyi esa, albatta, uning nutqida namoyon bo'ladi. Ushbu ta'rifni hisobga olgan holda tilimizda mavjud metaforalar inson ongida qayta ishlangan so'zlardan hosil bo'lishi va tilga ko'chishi tufayli sof kognitiv hodisa deb hisoblasak bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Lakoff, G., & Johnson, M. *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press. 1980
2. Mirtojiyev M.M. O'zbek tili semasiologiyasi.- Toshkent: Mumtoz so'z, 2010
3. Qobuljonova, G. K. Nutqiy metafora: lingvopragmatik tahlil. Toshkent: Ma'naviyat.2021
4. Хомякова Е.Г. "Информационная когнитивная система и её актуализация в языке" Сборник статей.-Под ред. С.И.Дудника.- СПб.: Санкт-Петербургское философскофакультет общностио, 2004.- С.180-197.
5. Umurqulov, B. O'zbek she'riy tilidagi poetik metaforalar. Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi 2019.
6. Tohirov, Z. Zamnaviy metaforologiya: nazariy va amaliy jihatlar. Toshkent: Noshir. 2020
7. Lakoff, G., & Johnson, M. *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press. 1980

¹³ Хомякова Е.Г. "Информационная когнитивная система и её актуализация в языке" Сборник статей.-Под ред. С.И.Дудника.- СПб.: Санкт-Петербургское философскофакультет общностио, 2004.- С.180-197.